

INTERPRETATION OF THE CONCEPT IN MODERN LINGUISTICS

Yo'ldasheva Maftuna Islom kizi, English teacher

Annotation

This article on modern linguistics explores the emergence of linguocognitology as well as the study of the concept subject, its central concepts.

Keywords: linguocognitology, linguoculturology, cognitive activity, concept.

Ma'lumki, olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonni tafakkurga oid milliy madaniy unsurlardan holi tarzda tasavvur qilib bo`lmaydi. Bugungi kunda, tilshunoslik ilmida yangi sohalarning vujudga kelishi matn, til muammolari bilan bog`liq masalalarining yechimini topishda katta samara bermoqda. Jumladan, hozirgi kun tilshunoslari semantika, kognitologiya, lingvokulturologiya, psixolingvistika, sotsolingvistika kabi ko`plab til o`rganishga oid yangi yo`nalishlarga tayanib ish ko`rmoqdalar. Shulardan eng dolzarb ahamiyatga ega bo`lganlaridan biri, “til va madaniyatning uzviy aloqadorligini, uning shakillanishi va rivojlanishini o`zida aks ettiradigan hodisalar – til va madaniyatni birgalikda o`rganadigan alohida ilmiy sohalingvokultrologiyadir” [4, 1]. Insonning bilish faoliyati bilan shug`illanadigan kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridan biri bo`lgan “konsept” atamasi lingvokultrologiyada ko`p qo`llaniladigan unsir ekanligi, P. Dilbarxon Abdullajon qizining “Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi” maqolasida ko`rsatib o`tilgan[3, 1]. Tilshunoslikda ko`p qirrali tushunchalardan biri konsept lotin tilidagi “konceptus” so`zining so`zma so`z tarjimasi bo`lib, XX asrning birinchi choragida rus faylasufi S. Askaldov tomonidan ilmiy munosabatga kiritilgan. O`tgan asrning 80-yillarigacha tushuncha so`ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo`lsa, bugungi kunda keng qamrovga egaligini kuzatish mumkin. Konsept bir tomondan insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa bir tomondan inson konsept yordamida madaniyatga kirib, unga ta`sir ham ko`rsatishi mumkin. Jumladan, N. Mahmudovning “Tilning

mukammal tadqiqi yo'llarini izlab”, N. Qurbonnazarovaning “Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik va lingvomadaniy tadqiqi” nomli PhD ilmiy ishi, L.Uzoqovaning “o'zbek va ingliz tillaridagi “to'y” leksemasi bilan bog'liq birliklarning lingvokulturologik tadqiqi” kabi maqolasi, ingliz olimlaridan Bradford Jones yetti yillik izlanishlari davomida to'y konsepriga oid birliklarning ro'yhxatini ommaga tushunarli tarzda tuzib chiqqan.

Hozirgi kunda barcha fan sohalari qatori tilshunoslik ham tobora rivojlanib kelmoqda. Dunyo tilshunosligida matnga avvallari sintaktik struktur jihatdan yondashilgan bo'lsa, XXI asr boshlaridan boshlab lingvokulturologik, lingvokognitologik, sotsiolingvistik hamda psixolingvistik tamoyillar yordamida tahlil qilish kuchaydi. Xususan, insonning bilish faoliyati bilan shug`ullanuchi lingvokognitologianing paydo bo`lish sanasini 1956-yildan deb e'tirof etadilar. Kognitiv tilshunoslikda kognitiv atamasining izohi “inglizcha “cognitive – bilishga oid” so`zi bilan bog'liq”dir.[1] Kognitiv lingvistika insonning kognitiv faoliyati bilan chambarchas bog`liq sanaladi. Konsept, ssenariy, kognitsiya, freym atamalari kognitiv lingvistikaning markaziy tushunchalaridir. Ular orasida konsept atamasi lingvokulturologiya, lingvokognitologiya hamda adabiyotshunoslikda qo'llaniladi. Ammo izohi esa o'zaro farqlanadi. Konsept lotin tilidagi “conceptus” – tushuncha so`zining kalkasidir. Konsept rus tilshunosligida XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. Ushbu termin o'tgan asrning 80-yillaiga qadar tilshunoslikda tushuncha so`ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda uning ma'nosini anchayin kengayganini kuzatish mumkin.

Konsept ikki tomonlama xususiyatga ega. Chunki u bir tomonidan madaniyat konsept ko`rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa bir tomonidan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Konseptga taniqli rus tilshunosi V.A.Maslova quyidagicha ta'rif bergan: “bu lingvomadaniy

o`ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir”.[2]

Tilshunos olim N. Mahmudov o`zining “Til tizimi tadqiqi” nomli risolasining “Tilning mukammal tadqiqi yo`llarini izlab...” mavzusidagi maqolasida “...konsept tafakkurga oid, mazmuniy mental tushuncha, lekin uni milliy-madaniy unsurdan tamoman xoli bo`lgan hodisa sifatida qarash anchayin munozaralidir”¹³ deb yozadi. Pragmalingvistika hamda kognitiv tilshunoslik asarlari muallifi, tilshunos Sh. Safarov ta`biri bilan aytganda, “...inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo`nalishda o`zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet –hodisalar haqida tushuncha tug`ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namuna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini taqozo qiladi.”¹⁴ Xulosa sifatida shuni qayd etishiz mumkinki, konsept zamonaviy tilshunoslikning har ikki sohasi uchun ham, ya’ni lingvokognitologiya va lingvokulturologiya uchun ham faol qo`llaniluvchi birlik hisoblanadi. Konseptning tahlilini quyidagi poetik matn misolida ko`rishimiz mumkin:

Oymomoyu oymomo,

Kosa to`la moy momo.

Balki, shakar solingan

Shiringina choy momo.

Oymomoyu oymomo,

Kulcha bo`ling, hoy momo.

Yaxshilarga kulchayu

Yomonlarga yoy momo.[3] (Anvar Obidjon)

Keltirilgan she'riy matnda "oy" konsepti haqida so'z yuritilmoxda. "oy" konsepti o`zbek tili sohiblarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

- 1) Yovuzlikdan panoh toppish, ezgulik;
- 2) Yangilik, yangi hayot;
- 3) Rizq hamda farovonlik;
- 4) Diniy e'tiqod. (Islom dinida);

5) Go`zallik; 6) Tinchlik. "Oy" konsepti orqali o`zbek tili vakillarining tafakkurida "oy yuzli", "oydayin go`zal yuzli" o`xshatishlar shuningdek, "Oyni etak bilan yopib bo`lmas" kabi maqollar mavjud. Safarga otlangan kishiga ezgulik ulashish maqsadida "Oy borib, omon qayt" birligi ham qo'llaniladi. Yuqorida keltirilgan she'riy mantda ham "oy" konsepti ezgulik vositasi sifatida qayd etilgan.

Bundan tashqari, "oy" konsepti lingvomadaniy ahamiyatga ham ega bo`lib, u rus madaniyatida ham go`zallikka qoyil qolish ma'nosida "лицо как луна" iborasi mavjudligini ta'kidlash joiz. Lekin ruslar ongida "oy" qorong`ilik, oxirat, hayot-momot tarzida tasavvurlar bor. Shu singari misollarni boshqa xalqlar madaniyatida ham uchratish mumkin. Masalan, Vietnam xalqi hayotidagi jamiki ezguliklarni oy orqali tasavvur etadilar.

Insoniyat hamisha borliq va undagi voqealarni anglashga intilib kelgan. Jamiyatdagi har bir o'zgarish tilda ham o'z aksini topadi. Til va tafakkur munosabatining uzviyligi, olamni bilishda tilning ahamiyati kabi masalalar mavjudligi sabab kognitiv tilshunoslik vujudga keldi. Kognitiv so'zi ingilizcha so'zdan olingan bo`lib, "tushunmoq", "bilmoq" ma'nolarini anglatadi. Kognitiv tilshunoslikning birlamchi funksiyalaridan biri til va ong munosabati, borliq jarayonlarini umumlashtirishda tilning ahamiyatini o'rganish hisoblanadi. Kognitiv lingvistikating asosiy tushunchalaridan biri bu konseptdir. Ushbu atamaning kelib chiqishi tilshunoslikning psixologiya, satsiologiya, falsafa kabi fanlar bilan

yaqinlashuvi, genetik bog'liqligi natijasidir. Konsept atamasi lotin tilidagi "concipere" to'plamoq, ilib ketmoq, o'ylab qolmoq, boshlab yubormoq ma'nolarini bildiradi. Kognitiv lingvistikada konsept til birliklarining ma'nosи bilan bog'liq holda o'r ganiladi va shunga binoan tafakkur birligi sifatida qaralayotgan konseptni qoliplashtirishda til birliklariga xos xususiyatlarga tayaniladi. Demak, lingvokognitiv konsept tilshunoslikdagi u yoki bu lug'aviy birlik, uning o'ziga xos xususiyatlari va uning atrofida birlashuvchi ma'nolar yig'indisidir.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. Jizzax -2006. 10-bet.
2. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2008. –Б.50.
3. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi.Toshkent. “MUMTOZ SO‘Z”2017. 60-bet.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax -2006. 25-bet 5. Anvar Obidjon. Saylanma. Toshkent -2019. 161-bet.
5. Safarov Sh.. Semantika. “O’zbekiston milliy ensikopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. T. 2013. 283-b
6. O’zbek tilining izohli lug`ati.5 jildlik.4-jild. – Toshkent: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 608 bet-229b.
7. Qurbanazarovaning N., Surxondaryo vohasi to`y marosimi etnografizmlarining semantik va lingvomadaniy tadqiqi. – Termiz, 2021. -B-15 2.